

BUXORO SHASHMAQOMI: TUZILISHI, SHO'BA VA IJRO USLUBLARINING ILMIY TAHLILI

I.Urinov

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati
insitituti o'qituvchisi*

M.Mirzayeva

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati insitituti
An'anaviy xonandalik yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro Shashmaqomining tuzilishi, sho'balari va ijro uslublari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda maqomlarning ichki tarkibi, xususan, cholg'u va ashula bo'limlari hamda ularning o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Sho'balarning guruhlariga ajratilishi, ularning badiiy va funksional xususiyatlari izchil tahlil etilgan. Shuningdek, Shashmaqom ijrochiligidagi xos (saroy) va ma'muliy (xalqchil) uslublarning o'ziga xos jihatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari Shashmaqomning murakkab tuzilishga ega ekanligini, uning chuqur falsafiy mazmuni va milliy madaniyatimizdagi o'рни beqiyos ekanligini ko'rsatadi. Mazkur merosni o'rganish, asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazishning dolzarbligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Shashmaqom, Buxoro maqomi, o'zbek mumtoz musiqasi, maqom tuzilishi, sho'ba, cholg'u bo'limi, ashula bo'limi, ijro uslublari, an'anaviy musiqa, madaniy meros

Annotation: This article examines the structural features, subdivisions (sho'ba), and performance styles of the Bukhara Shashmaqom, one of the most sophisticated systems of Uzbek classical music. The study analyzes the internal organization of maqoms, including instrumental and vocal sections, and highlights their functional and artistic significance. Special attention is given to the classification of sho'bas and their role within the overall compositional structure. Furthermore, the research explores the distinctive characteristics of the two main performance traditions — the court (khos) and the popular (ma'muli) styles. The findings emphasize the complexity, philosophical depth, and cultural value of Shashmaqom, as well as its importance in preserving national identity and transmitting musical heritage to future generations.

Keywords: Shashmaqom, Bukhara maqom, Uzbek classical music, maqom structure, sho'ba, instrumental section, vocal section, performance styles, traditional music, cultural heritage

Milliy musiqamiz – bu xalqimizning ko'p asrlik tarixi, orzu-armonlari, quvonch va iztiroblarini o'zida mujassam etgan bebaho ma'naviy merosdir. O'zbek milliy musiqasi nafaqat kuy va qo'shiqlardan iborat, balki u xalqning ruhiyati, dunyoqarashi

va estetik tafakkurini ifodalaydi. Ayniqsa, Buxoro Shashmaqomi, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari va Xorazm maqomlari kabi boy an'analari milliy san'atimizning yuksak namunalari. Va shu qatorda Buxoro shashmaqomi o'zbek mumtoz musiqasining eng yuksak namunasi hisoblanadi va u 2003-yilda UNESCO tomonidan "Insoniyatning nomoddiy madaniy me'rosi" deb tan olinganligi biz uchun katta tarixiy voqeaga aylandi. Kelajak avlodga milliy musiqamizni targ'ib qilish esa bizning ayni paytda qilishimiz zarur bo'lgan burchimiz hisoblanadi.

Mamlakatimizda, barcha sohalar kabi musiqa hamda maqom san'atini rivojlantirish borasida ham islohotlar olib borilayotgani e'tiborlidir. Jumladan, O'zbek milliy musiqa san'ati institutining ochilishi, har ikki yilda maqom festivallarining o'tkazilishi natijasida maqomga bo'lgan e'tibor o'zgardi. «Shashmaqom»ning 2003 yilda YUNESKO tomonidan «Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonasi» sifatida tan olinishi mazkur fenomenning falsafiy va estetik xususiyatlarini o'rganish borasidagi tadqiqotlarni yanada jonlantirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. "Endilikda maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur"[1]. Ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotga erishishda mazkur san'at turining o'ziga xos o'rni va roli bor.

Maqom atamasi arabcha so'z bo'lib, "istiqomat o'rni", "turar joy" ma'nolarida keladi. Musiqa istilohida esa maqom musiqa cholg'ularida kuy va ashulalarni tashkil etadigan tovushlarning joylashadigan o'rni, ya'ni pardalardir[2].

O'zbek-Tojik xalqlari mumtoz musiqasi- Shashmaqom XVIII asr o'rtalarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlari tomonidan olti maqomdan iborat mahobatli turkum tarzida ifoda etilgan. Mazkur maqomlar quyidagicha nomlanadi:

1. "Buzruk" ma'nosi - "Katta", "Ulug'", "Buyuk".
2. "Rost" ma'nosi - "To'g'ri", "Chin", "Haqiqiy"
3. "Navo" ma'nosi - "Kuy", "Mungli kuy", "Ishq kuyi"
4. "Dugoh" ma'nosi - "Ikki o'rin", "Ikki joy", "Ikki parda"
5. "Segoh" ma'nosi - "Uch o'rin", "Uch joy", "Uch parda"
6. "Iroq" - ma'lum arab mamlakatining nomiga nisbatan berilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Shashmaqom deganda, eng avvalo, tovush pardalarining olti xil ko'rinishidagi mukammal uyushmasi anglashiladi[3].

Maqomlar dastlabki davrda tarqoq shakllarda rivojlandi, XIII asrda esa Safiuddin al-Urmaviy ularni o'n ikki asosiy maqomdan iborat nazariy tizim shakliga keltirdi. XVII asrdan so'ng o'n ikki maqom tizimi inqirozga uchrab, uning negizida sharq xalqlari orasida maqomlarning yangicha milliy va mahalliy shakllari vujudga kela boshladi. Xususan, XVIII asrning o'rtalarida O'rta Osiyoning yirik madaniy markazlaridan biri Buxoro Amirligida saroy sozanda, xonanda va bastakorlari ijodiy

ijrochilik faoliyatida shashmaqom uzul kesil shakllanib, Buxoro maqomlari, Buxoro shashmaqomi nomlarida ham yuritiladi[4].

Shashmaqomning tarqalishida ikki asosiy an'ana qaror topgan. Ularni shartli ravishda "Xos" va "Ma'muliy" deb belgilash mumkin. Birinchisi – eng nufuzli maqom muxlisleri diqqatiga havola etiladigan hashamatli saroy uslubi (Rikobiy). Ikkinchisi- maqom yo'llarining saroydan tashqarida kengroq doirada, to'y-hashamlar, bazm-u ziyofatlar, gap-u gashtaklarda joriy etiladigan ma'muliy, amaldagi ko'rinishi. Bunday ijrochilar- ma'muliy (xalqchil) yo'nalish "savtxon" (ashulachi) deb yuritilgan. Xorazmda esa xos va ma'muliy toifadagi ijrochilar "saroy sozandalari" va "el sozandalari" nomlari bilan atalgan.

"Saroy uslubi" – "yopiq tizim", u, eng avvalo, har bir maqomning, tarkibiy sho'ba va qismlarini odobga muvofiq, muqimlashgan yaxlit turkum sifatida ijro etilishini nazarda tutadi. Qolaversa, kuy va ashulalarni parda hamda usul qonun-qoidalariga to'la rioya etgan holda, barcha unsur va amallarini joy-joyiga qoyib, mukammal badiiy asar tarzida talqin qilishni taqozo etadi. Xullas xos uslubda nuqson yoki kamchilikka o'rin bo'lmasligi kerak. Bu ishni yuqori saviyada uddalash uchun esa xofiz yoki cholg'uchi tabiiy imkoniyatlardan tashqari, tajriba, ko'nikma, mahorat hamda usta ko'rgan va maktab o'tagan bo'lishi zarur.

Muqobil ma'muliy uslub – "ochiq tizim" – maqom qismlarini alohida kuy va ashulalar sifatida hamda oddiyroq tarzda ijro etishga imkon beradi. Bunda ovozi yetmagan savtxonlar (ashulachilar – bu o'rinda "ashula" xalq shevasidan kelib chiquvchi ibora ekanligiga e'tibor berish lozim) maqom yo'llarining yuqori avjlarini biroz ixchamlashtirib, yengilroq variantlarda aytish ham mumkin. Ayrim sharoitlarda savtxonlar maqom parchalarini yakka doira jo'rligida ham ijro etganlar. Saroy uslubida esa bunga yo'l qo'yilmagan[5].

Maqomlar to'la va yaxlit ijro etiladigan bo'lsa, dastlab ularning cholg'u yo'llari birin-ketin ijro etilib, so'ngra ashula bo'limi sho'balariga o'tiladi. Maqomlarning cholg'u bo'limida quyidagilar uchraydi bular:

1. Tasnif
2. Tarje'
3. Gardun
4. Muxammas
5. Saql

Cholg'u bo'limlaridagi kuy yo'llarining har biri mustaqil cholg'u qismlar hisoblanadi va o'zlari mansub bo'lgan maqomlar nomi bilan qo'shib aytiladi. Masalan, Tasnifi Buzruk, Tarjei Buzruk, Saqili Navo, Samoi Dugoh, Muxammasi Iroq, Garduni Segoh va hokazo.

Shashmaqom tizimiga kirgan har bir maqomning cholg'u bo'limi ijro etilganidan keyin uning ashula bo'limi ijro etiladi. Maqomlarning ashula bo'limida bir nechadan

shoʻbalar mavjud. Bu shoʻbalarni ikki qismga (guruh)ga ajratiladi. Birinchi qismga kiruvchi shoʻbalar:

1. Saraxbor
2. Talqin
3. Nasr
4. Ufarlar kiradi.
5. Shu oʻrinda Saraxbor, Nasr va Talqinlar oʻzidan keyin ijro etiladigan

Taronalarga ega.

Ashula boʻlimining ikkinchi qismiga kirgan shoʻbalar guruhiga – Savt-Moʻgʻulchalar va turli maqomlarning oʻziga xos boʻlgan baʼzi ashula yoʻllari kiradi. Ikkinchi qismga kirgan shoʻbalarning Talqincha, Qashqarcha, Soqinoma va Ufar deb ataladigan shaxobchalari boʻlib, Savt va Moʻgʻulcha kabilar oʻzining shu shaxobchalari bilan birin-ketin yaxlit ijro etiladi. Birinchi va ikkinchi qismni tashkil etgan shoʻbalar, dastlab, oʻzining tarkibiga kirgan shaxobchalari (tarona yoki talqincha, qashqarcha va boshqalari) bilan farqlanadi[6].

Buxoro Shashmaqomi oʻzbek mumtoz musiqa merosining eng yuksak va mukammal tizimlaridan biri boʻlib, u koʻp asrlik tarixiy taraqqiyot natijasida shakllangan murakkab musiqiy-falsafiy hodisa hisoblanadi. Ushbu maqom tizimi nafaqat musiqa sanʼati namunasi, balki xalqning estetik tafakkuri, ruhiyati va maʼnaviy dunyosining ifodasidir.

Tadqiqot davomida Shashmaqomning tuzilishi, uning cholgʻu va ashula boʻlimlari, shoʻbalari hamda ijro uslublari atroflicha tahlil qilindi. Xususan, maqomlarning ichki tuzilishi qatʼiy tizimga asoslanganligi, har bir shoʻbaning oʻziga xos badiiy va musiqiy funksiyaga egaligi aniqlandi. Shuningdek, xos (saroy) va maʼmuriy (xalqchil) ijro uslublarning mavjudligi Shashmaqomning ijrochilik anʼanalarida ikki yoʻnalishning shakllanganligini koʻrsatadi.

Tahlillar natijasida Shashmaqomning murakkabligi, koʻp qatlamli tuzilishi va chuqur falsafiy mazmuni uning nafaqat milliy, balki jahon madaniyatidagi oʻrnini ham belgilab berishi asoslab berildi. Shu bois, ushbu merosni oʻrganish, asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish dolzarb vazifalardan biri boʻlib qolmoqda.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulugʻ xalqning ishi ham ulugʻ, hayoti yorugʻ va kelajagi farovon boʻladi. 3-jild. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2019. – 321 b.
2. I.Rajabov. Maqomlar. “Sanʼat” nashriyoti. Toshkent 2006. 63-b.
3. O.Ibrohimov. Maqom asoslari. “Turon-Iqbol” nashriyoti. Toshkent 2018. 35-b.
4. I.Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. “OʻzSSR Davlat badiiy adabiyot” nashriyoti. Toshkent-1963.
5. O.Matyobov. Maqomot. “Musiq” nashriyoti. 2004. 55-b.
6. I. Rajabov. Maqomlar. “Sanʼat” nashriyoti. Toshkent 2006. 165-181-b.